	o'sish sur'ati, %	108,2	104,2	105,1	102,5	107,4	100,5	98,8
Xizmatlar, jami	mlrd.so'm	3 611,3	4 600,2	5 671,8	6 520,3	8 458,4	10 595,3	12 875,6
	o'sish sur'ati, %	108,3	113,2	112,8	106,1	121,5	116,0	110,7
Tashqi savdo aylanmasi	mln. AQSh. Dollar	641,1	742,0	700,0	539,0	649,2	599,3	535,1
	o'sish sur'ati, %	102,0	115,7	94,3	77,0	120,4	92,3	89,3
Eksport	mln. AQSh. Dollar	462,4	457,8	431,1	362,7	416,2	352,8	326,5
	o'sish sur'ati, %	108,0	99,0	94,2	84,1	114,8	84,8	92,5
Import	mln. AQSh. Dollar	178,7	284,2	268,9	176,3	233,0	246,5	208,7
	o'sish sur'ati, %	89,3	159,1	94,6	65,6	132,1	105,8	84,7

Tashqi savdo aylanmasi ma'lum darajada o'zgaruvchan bo'lib, eksport hajmining 462,4 mln AQSh dollaridan 326,5 mln dollargacha kamayishi hududning tashqi iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi imkoniyatlarni yanada kengaytirish hamda logistika infratuzilmasini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur holat eksport infratuzilmasiga qo'shimcha sarmoya jalb qilish, transport-kommunikatsiya tizimini modernizatsiya qilish va yangi tashqi bozorlarni o'zlashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni kuchaytirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

2017–2024-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiya faoliyatining dinamikasi hududlar kesimida sezilarli farqlangan. Respublika miqyosida umumiy o'sish tendensiyasi ijobiy bo'lib, 2017-yildagi 60,4 foizdan 2024-yilda 146,3 foizgacha ortishi hududda sarmoyaviy faollikning izchil kuchayganini ifodalaydi. Bu jarayon davlat investitsiya dasturlarining kengayishi, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining rivojlanishi hamda infratuzilmaviy loyihalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan bog'liq.

Hududlar bo'yicha tahlil ayrim tumanlarda investitsiya faolligining yuqori sur'atlarda o'sayotganini ko'rsatadi. Masalan, Taxiotosh tumanida 2018-yilda 4771,7 foizlik o'sish qayd etilgan bo'lib, bu hududda yirik sanoat obektlari, energetika va qurilish infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilgani bilan izohlanadi. Shuningdek, Qorao'zak va Qo'ng'iro't tumanlarida 2024-yilga kelib mos ravishda 213,5 va 201,1 foizlik o'sish qayd etilishi ushbu hududlarda mineral resurslar, neft-gaz hamda logistika salohiyatiga asoslangan investitsiya loyihalari faol rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Nukus shahri va Xo'jayli tumanida 2021–2024-yillar davomida investitsiya faolligining 100 foizdan yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgani mazkur hududlarda iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichi boshlanganini anglatadi. Ayniqsa, Nukus shahrining investitsion jozibadorligi sezilarli darajada oshib, uning Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy, xizmat ko'rsatish va sanoat markazi sifatidagi o'rni mustahkamlanib bormoqda. Shaharda xizmat ko'rsatish infratuzilmasining jadal rivojlanishi, bank va moliya institutlari faoliyatining kengayishi hamda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarining ortishi sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratmoqda.

Shuningdek, turizm va madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan loyihalar, shahar infratuzilmasini yangilash dasturlari hamda ijtimoiy obektlar qurilishi investitsiyalar oqimini rag'batlantiruvchi qo'shimcha omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijada, Nukus shahri va unga tutash hududlar investitsiya faolligining barqaror o'sish nuqtalariga aylanib, hududiy iqtisodiy rivojlanishda muhim lokomotiv vazifasini bajarayotgani kuzatilmoqda (2-jadval).

2-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investisiyalarning o'sish sur'ati (foiz hisobida)¹

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Qoraqalpog'iston Respublikasi	60,4	169,9	100,3	69,9	105,1	114,9	116,6	146,3
Nukus sh.	143,3	90,5	89,6	66,4	124,0	130,6	115,7	102,9
tumanlar:								
Amudaryo	90,3	112,2	124,8	129,7	129,8	109,2	65,2	143,6
Beruniy	72,0	205,2	74,3	133,4	101,7	96,0	71,5	149,3
Bo'zatov	-	-	-	298,5	87,9	108,2	80,8	56,5
Qorao'zak	65,9	237,2	57,5	81,9	142,7	554,1	138,4	213,5
Kegeyli	143,8	210,6	96,4	63,8	154,8	102,0	74,5	86,3
Qo'ng'iro't	21,9	107,2	79,2	97,4	103,7	101,8	171,3	201,1
Qonliko'l	204,5	211,3	373,5	16,6	213,2	96,2	91,6	134,5
Mo'ynoq	54,3	126,9	169,2	73,1	100,3	62,7	112,0	133,5
Nukus	71,7	211,2	134,9	58,5	128,3	111,1	140,0	72,2
Taxiatosh	77,9	4771,7	53,8	32,1	50,9	102,4	27,8	151,8
Taxtak'o'pir	212,8	372,7	41,2	209,0	73,4	79,5	128,2	109,2
To'rtko'l	90,1	163,4	355,4	94,9	92,1	64,3	121,9	72,9
Xo'jayli	75,5	167,4	187,7	39,1	174,3	118,3	94,9	85,6
Chimboy	120,2	310,2	135,7	86,1	113,8	111,8	105,6	135,4
Shumanay	307,4	92,4	273,4	49,2	62,8	124,4	90,2	104,3
Ellikqal'a	112,5	70,2	200,2	86,4	97,2	90,6	111,9	77,3


2-jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar o'sish sur'atlari yillar kesimida ma'lum darajada o'zgaruvchan bo'lsa-da, umumiy tendensiya sifatida faol investitsiya jarayonlari mavjudligini aks ettiradi. Xususan, respublika miqyosida 2017–2024-yillar oralig'ida investitsiya o'sish sur'atlari ayrim davrlarda sekinlashgan bo'lsa-da, 2022–2024-yillarda barqarorlashuv va jadallashuv kuzatilgan.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, ayrim tumanlarda — jumladan, Qorao'zak, Qonliko'l, Qo'ng'iro't, Beruniy va Amudaryo tumanlarida alohida yillarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgani investitsiya loyihalarining manzilli va ustuvor yo'nalishlarga asoslangan holda amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Bu holat hududiy investitsiya siyosatining maqsadli va bosqichma-bosqich olib borilayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda kuzatilayotgan keskin tebranishlar investitsiya faoliyatining infratuzilmaviy loyihalar, tarmoq xususiyatlari va yirik investitsiya dasturlari bilan uzviy bog'liqligini anglatadi. Bunday o'zgarishlar hududlarda amalga oshirilayotgan kapital sig'imi yuqori loyihalarining bosqichma-bosqich ishga tushirilishi bilan izohlanadi.

Nukus shahri va Xo'jayli tumanida investitsiya o'sish sur'atlarining nisbatan barqaror saqlanishi esa ushbu hududlarning ma'muriy, sanoat va xizmatlar markazi sifatidagi rolini tasdiqlaydi hamda ularning investitsion jolibadorligi izchil mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi (1-rasm).

1 www.Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (ming so'm hisobida)²

Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 2017–2024-yillar davomida izchil o'sish tendentsiyasini namoyon etishi hududiy investitsiya jarayonlarining faol rivojlanayotganini ko'rsatadi. Xususan, ushbu ko'rsatkich 2017-yilda 1528,8 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 10201,2 ming so'mgacha ortib, qariyb yetti barobar o'sgani qayd etilgan. Bunday sezilarli o'sish investitsiya resurslarining hudud iqtisodiyotiga keng jalb etilayotganini, kapital qo'yilmalarning real sektorga yo'naltirilayotganini hamda ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida iqtisodiy faollik oshganini anglatadi.

Shu bilan birga, aholi jon boshiga investitsiya hajmining ortishi hududda aholi daromadlarining ko'payishi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning yaxshilanishi hamda yashash sifatini oshirishga qaratilgan loyihalarning amalga oshirilishi bilan ham uzviy bog'liqdir. Umuman olganda, mazkur dinamika Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiya muhitining izchil takomillashayotganini va hududiy iqtisodiy rivojlanishda investitsiya omillarining ahamiyati tobora ortib borayotganini tasdiqlaydi.

2018–2019-yillarda kuzatilgan yuqori o'sish, ya'ni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar hajmining 3641,1 ming so'mdan 4644,4 ming so'mgacha oshishi Qoraqalpog'iston Respublikasida yirik infratuzilmaviy hamda sanoat loyihalarining faol amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, mazkur jarayon hududda sarmoyaviy muhitning sezilarli darajada faollashuviga turtki bergan. Ayniqsa, transport, energetika va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan kapital qo'yilmalar investitsiya hajmlarining tez sur'atlarda o'sishini ta'minlagan.

2020-yilda ko'rsatkichning 3710 ming so'mgacha ma'lum darajada pasayishi global pandemiya sharoitida investitsiya faoliyatiga vaqtinchalik ta'sirlar, ayrim loyihalarning muddatlari qayta ko'rib chiqilgani hamda iqtisodiy noaniqlik omillari bilan izohlanadi. Biroq, 2021–2024-yillar davomida investitsiya jarayonlarining qayta faollashuvi va yuqori o'sish sur'atlarining kuzatilishi davlat tomonidan amalga oshirilgan qo'llab-quvvatlash choralari, institutsional islohotlar hamda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan siyosatning ijobiy natijalarini ko'rsatadi.

Natijada, hududda investitsiya faoliyati barqaror rivojlanish bosqichiga o'tib, uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun mustahkam zamin shakllangan. Xususan, 2022–2024-yillarda aholi jon boshiga investitsiya hajmining 5225,5 ming so'mdan 10201,2 ming so'mgacha ko'payishi hududdagi davlat investitsiya dasturlari kengaygani, xorijiy sarmoyalarni jalb etish siyosatining samaradorligi oshgani hamda moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining yanada kuchayganidan dalolat beradi (3-jadval).

3-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiya manbalari tuzilishi (foiz hisobida)³

Investitsiya manbalari	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Davlat budjeti ulushi	7,4	3,0	15,3	12,1	12,4	14,0	9,3	6,3
Xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi	10,0	23,7	36,9	38,9	37,4	38,7	56,6	70,1
Korxonalar va aholining o'z mablag'lari ulushi	62,8	37,9	34,3	39,1	39,9	38,0	29,2	19,2
Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari ulushi	12,2	14,1	7,1	7,7	6,1	6,2	4,1	2,1

² www.Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

³ www.Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2017–2024-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiya manbalari tarkibida sezilarli strukturaviy o‘zgarishlar kuzatildi. Davlat budjeti hissasi 2017-yilda 7,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 6,3 foizgacha kamaygan. Bu holat hududda investitsiya jarayonlarida xususiy sektor ishtirokining bosqichma-bosqich kengayib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlari infratuzilmani modernizatsiya qilish va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan.

Eng muhim o‘zgarish xorijiy sarmoya va kreditlar ulushida kuzatildi. Agar 2017-yilda ularning ulushi 10 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 70,1 foizgacha oshgan. Bu tendensiya Qoraqalpog‘iston Respublikasining xalqaro investitsiya makonidagi mavqei mustahkamlanayotganini hamda hududning iqtisodiy jozibadorligi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Bunday o‘shish, avvalo, investitsiya muhitini liberallashtirish, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish va erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari hissasi 2017-yildagi 62,8 foizdan 2024-yilda 19,2 foizgacha kamayishi investitsiya manbalari tarkibida ichki moliyaviy resurslar ulushining qisqarganini ko‘rsatadi. Bu holat ichki kapital jamg‘arish jarayonlarini yanada faollashtirish, xususiy sektor moliyaviy salohiyatini mustahkamlash hamda aholi jamg‘armalarini investitsiya jarayonlariga kengroq jalb etish zarurligini anglatadi. Iqtisodiy faollik oshib borayotgan bir sharoitda mahalliy investorlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hududiy investitsiya siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Shuningdek, bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari ulushining 12,2 foizdan 2,1 foizgacha kamayishi hududda moliya bozori instrumentlarini yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank tizimi ishtirokini kengaytirish, uzoq muddatli kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish va moliyaviy vositalarni diversifikatsiya qilish dolzarb ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Hududlarning investitsiya muhitini rivojlantirishda bir qator samarali mexanizmlar mavjud. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida hududiy investitsiya muhitini shakllantirish va rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan keng foydalanilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, barqaror iqtisodiy o‘shishga investitsiya faolligini oshirish, milliy va xorijiy investorlarni keng jalb qilish sharoitida erishish mumkin. Xitoy, Janubiy Koreya Respublikasi, Irlandiya, Vengriya, Tayvan kabi mamlakatlar tajribasi investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish muhim natijalar berishini ko‘rsatmoqda.

Bojxona to‘lovlari, soliq imtiyozlari, subsidiya mexanizmlari, valyuta tartibotlarida qulay sharoitlar yaratish va boshqa rag‘batlantiruvchi choralarni qo‘llash orqali hududiy investitsiya muhitini yaxshilash natijasida hududlarga sezilarli miqdorda moliyaviy, moddiy, texnologik va mehnat resurslari jalb etiladi. Natijada iqtisodiy rivojlanish jadallashadi, valyuta tushumlari ortadi, ichki bozor raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar bilan boyiydi hamda eksport salohiyati kengayadi.

Maxsus iqtisodiy zonalaridagi soliq, bojxona va ma‘muriy imtiyozlar, nisbatan arzon va malakali ishchi kuchi, xom ashyo bazasi hamda mahsulotlarni eksport-import qilish tartibotlarining soddalashtirilishi xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratadi. Bu esa zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, innovatsion ishlab chiqarishlarni yo‘lga qo‘yish va hududiy sanoat bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish hududlarning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish, iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda sarmoyalarni faol jalb etishning sinalgan va samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bunday zonalar sanoat, logistika, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish hamda innovatsion faoliyatni joylashtirish uchun qulay institutsional muhitni shakllantiradi. Natijada hududiy infratuzilma rivojlanadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi ta‘minlanadi. Bu esa hududiy iqtisodiy o‘shish va investitsiya muhitining kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi.

2020–2024-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) faoliyati izchil rivojlanish tendensiyasini namoyon etib, hududiy investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Agar 2020-yilda hududda faqat 1 ta maxsus iqtisodiy zona faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2024-yilda ularning soni 3 taga yetgan. Bu holat hududda iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, sarmoyaviy loyihalarni markazlashmagan asosda amalga oshirish hamda mahalliy resurs salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan islohotlar natijasidir.

MIZlardagi korxonalar sonining 3 tadan 14 tagacha ortishi hamda investitsiya loyihalari sonining 3 tadan 8 tagacha ko‘payishi hududda xususiy sektor ishtirokining sezilarli darajada faollashganini yaqqol namoyon etadi. Mazkur dinamika investorlar uchun yaratilgan imtiyozli shart-sharoitlar, institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va infratuzilmaviy imkoniyatlar amaliy samara berayotganini ko‘rsatadi.

Bu jarayon nafaqat sarmoya jalb qilish, balki yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Shuningdek, MIZlar doirasida yaratilgan ish o‘rinlari sonining 2020-yildagi 436 tadan 2024-yilda 582 tagacha oshishi hududda bandlikni kengaytirish, aholi daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda ushbu zonalarining roli ortib borayotganini anglatadi.



Natijada, maxsus iqtisodiy zonalar hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiruvchi va investitsiya muhitini mustahkamlovchi muhim institutsional mexanizm sifatida shakllanib bormoqda.

4-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalarining rivojlanish tendensiyalari va ularning investitsiya muhitiga ta'siri (2020–2024-yillar tahlili)⁴


№	Ko'rsatkichlar nomi	yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
Mutloq ko'rsatkichlar						
1.	Maxsus iqtisodiy zona soni	1	1	2	3	3
2.	Korxonalar soni	3	5	6	8	14
3.	Investisiya loyihalari soni	3	3	4	6	8
4.	Yapatilgan ish o'pinlari soni	436	501	526	556	582
Nisbiy ko'rsatkichlar						
5.	QR YaHM hajmi, mlpd. so'm	25 523,4	29 738,2	35 541,6	39 430,3	43 013,7
	MIZda yalpi ishlab chiqapish hajmi, mlpd. so'm	74,2	79	100,4	97,7	102,8
	ulushi, foizda	0,29	0,26	0,28	0,24	0,23
6.	Yalpi investisiyalap hajmi, mln. dollap	7 089,8	8 110,7	10 254,0	12 959,2	14 307,2
	MIZda yalpi investisiyalap hajmi, mlrd so'm	216,1	258,9	633,4	688,01	739,2
	ulushi, foizda	3,04	3,1	6,1	5,3	5,1
7.	QRda eksport hajmi, mln doll	362,7	416,2	352,8	326,5	348,2
	MIZlarda eksport hajmi, mln doll	0,48	1,36	1,94	1,09	1,45
	ulushi, foizda	0,1	0,3	0,5	0,3	0,4

Nisbiy ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maxsus iqtisodiy zonalar (MIZlar) hudud iqtisodiyotidagi umumiy hissasini bosqichma-bosqich kengaytirib bormoqda hamda ularning iqtisodiy va investitsion salohiyati yildan-yilga izchil oshib bormoqda. Xususan, yalpi hududiy mahsulot tarkibida MIZlar ulushi 2020-yilda 0,29 foizni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilda 0,23 foiz darajasida shakllangan. Ushbu o'zgarish, avvalo, hudud iqtisodiyotida umumiy o'sish sur'atlarining yuqori bo'lgani hamda MIZlar faoliyatining keyingi bosqichda kengayib borayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, yalpi investitsiya hajmida MIZlar ulushining 3,04 foizdan qariyb 5 foiz atrofida barqarorlashuvi maxsus iqtisodiy zonalarining sarmoya oqimlarini jalb etishdagi roli tobora mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Bu tendensiya MIZlar investitsiya resurslarini jamlash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish va kelgusida yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega loyihalarni amalga oshirish nuqtai nazaridan strategik ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi.

Mazkur ko'rsatkichlar maxsus iqtisodiy zonalarining hududiy iqtisodiyotdagi o'zni izchil kengayib borayotganini hamda ularning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi muhim institut sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

4 www.Stat.uz маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди



3-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalar infratuzilmasini rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lar (mln so'm hisobida)⁵

Qoraqalpog'iston Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalar infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan investitsiya siyosati hududiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim drayverlardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati uchun zarur bo'lgan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, transport va logistika infratuzilmasini izchil takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, 2023-yilda ushbu maqsadlar uchun markazlashgan investitsiya manbalari hisobidan 4605,2 mln so'm miqdorida mablag' ajratilgani infratuzilmaviy bazani mustahkamlash hamda investitsiya loyihalarini joylashtirish imkoniyatlarini kengaytirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Ushbu investitsiyalar maxsus iqtisodiy zonalarda sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirish hamda xususiy va xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Natijada, infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash orqali hududda investitsiya muhitining jozibadorligi ortib borayotgani hamda iqtisodiy faollikning barqaror o'sishi uchun mustahkam asos yaratilayotgani kuzatilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqola doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiya muhiti jozibadorligining amaldagi holati kompleks va har tomonlama tahlil qilinib, hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimli ravishda o'rganildi. Tahlil jarayonida makroiqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari, amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining natijadorligi hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni jalb qilish tendensiyalariga ilmiy asoslangan baho berildi. Natijada, Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiya muhitini yanada rivojlantirish bo'yicha xulosalar shakllantirildi va keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam analitik asos yaratildi.

1. 2017–2024-yillar tahlili shuni ko'rsatdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va YalMdagi ulushining izchil o'sishi mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan liberal iqtisodiy siyosat, soliq va bojxona islohotlari hamda davlat-xususiy sheriklik tizimining samarali yo'lga qo'yilganini tasdiqlaydi. Bu holat hududiy investitsiya muhiti barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi.

2. Investitsiya muhiti jozibadorligining asosiy determinantlari makroiqtisodiy barqarorlik, huquqiy-institutsional kafolatlar, moliyaviy infratuzilma samaradorligi va transport-logistika tizimi rivojlanishi hisoblanadi. Mazkur omillarning mustahkamlanishi hududiy sarmoya muhitining barqaror o'sishini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, monitoring va baholash (M&E) tizimini standartlashtirish hamda raqamlashtirish maqsadga muvofiqdir.

3. Investitsiya manbalari tarkibi tahlili shundan dalolat beradiki, xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushining oshishi Qoraqalpog'istonning xalqaro sarmoya makonidagi integratsiya darajasini kuchaytirgan. Shu bilan birga, ichki kapital bozori va mahalliy sarmoya resurslarining ulushini oshirish moliyaviy chuqurlashuvni ta'minlash nuqtai nazaridan dolzarbdir. Bu uzoq muddatli investitsiya fondlari hamda institutsional investorlar ishtirokini kengaytirishni taqozo etadi.

4. Bank kreditlari va qarz resurslari ulushining kamayishi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, korporativ va "yashil" obligatsiyalar kabi zamonaviy moliyaviy vositalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Asosiy fondlar tarkibida mashina-uskunalar, transport vositalari va noturar joy binolariga sarmoyaning o'sishi sanoat modernizatsiyasi jarayonining jadallashganini anglatadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va intellektual mulkka investitsiyalarning ortishi esa raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonini qo'llab-quvvatlamoda.

⁵ Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi va xududiy maxsus iqtisodiy zonalar direksiyasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan xisob-kitob qilingan.



6. Qoraqalpog'iston Respublikasida YaHM, sanoat ishlab chiqarishi va xizmat ko'rsatish hajmining barqaror o'sishi hududiy investitsiya muhitining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Tashqi savdo aylanmasidagi o'zgaruvchanlik esa transport va logistika infratuzilmasini yanada modernizatsiya qilish istiqbolli yo'nalish ekanini anglatadi.

7. Tumanlar kesimidagi tahlil natijalari investitsiya faolligining hududlar bo'yicha farqlanishini ko'rsatadi: resurs va transport salohiyati yuqori hududlarda sarmoya oqimi yuqoriroq, infratuzilmasi rivojlanayotgan tumanlarda esa qo'shimcha qo'llab-quvvatlash zarur. Bu hududiy siyosatda maqsadli soliq imtiyozlari va klasterlashuv modellarini joriy etishni taqozo etadi.

8. Maxsus iqtisodiy zonalaridagi (MIZ) islohotlar va imtiyozli rejimlar kooperatsiya ta'siri va ma'muriy soddalik orqali sarmoya oqimini faollashtirdi. Ularning YaHMdagi ulushini oshirish maqsadida lokal kooperatsiyani chuqurlashtirish hamda ishlab chiqarish zanjirlarini keng integratsiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, makroiqtisodiy barqarorlik, institutsional sifat, moliyaviy chuqurlashuv va infratuzilma modernizatsiyasining uyg'un rivojlanishi Qoraqalpog'iston Respublikasining investitsiya muhiti jozibadorligini uzoq muddatli barqaror o'sish traektoriyasiga olib chiqadi. Shu asosda hudud Markaziy Osiyoda yuqori qo'shilgan qiymatli sarmoyalar uchun raqobatbardosh investitsion markaz sifatida shakllanish imkoniyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Solow, R. M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65–94. <https://doi.org/10.2307/1884513>
2. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press. <https://www.cambridge.org/core/books/institutions-institutional-change-and-economic-performance/>
3. Globerman, S., & Shapiro, D. (2002). Global Foreign Direct Investment Flows: The Role of Governance Infrastructure. World Development, 30(11), 1899–1919. [https://doi.org/10.1016/S0305-750X\(02\)00110-9](https://doi.org/10.1016/S0305-750X(02)00110-9)
4. UNCTAD (2023). World Investment Report 2023. United Nations Conference on Trade and Development. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>
5. World Bank (2023). World Development Report 2023: Migrants, Refugees, and Societies. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2023>
6. International Monetary Fund (2023). Republic of Uzbekistan: Staff Report for the 2023 Article IV Consultation. <https://www.imf.org/en/Countries/UZB>
7. OECD (2022). Special Economic Zones: A Review of Policy Instruments. <https://www.oecd.org/investment/investment-policy/special-economic-zones.htm>
8. Farole, T. (2011). Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experience. World Bank. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/2341>
9. Asian Development Bank (2023). Asian Development Outlook: Uzbekistan Chapter. <https://www.adb.org/countries/uzbekistan/main>
10. Hausmann, R., Rodrik, D., & Velasco, A. (2005). Growth Diagnostics. Harvard Kennedy School Working Paper. <https://growthlab.hks.harvard.edu/publications/growth-diagnostics>
11. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press. <https://hbr.org/product/the-competitive-advantage-of-nations/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100